

O'SMIRLAR ONGIDA QADRIYATLARNI SHAKILLANTIRISHNING PEDOGOGIK ASOSLARI

Datqayeva Feruza

*Andijon viloyati (Maktabgscha, boshlang'ich va
maxsus ta'lim metodikasi) kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi o'smir yoshdagi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakillantirishning nazariy – pedagogik asoslari tahlil etilgan.

O'smirlik davrida shaxsning ma'naviy – axloqiy qarashlari va tushunchalari shakillanadi, shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, mas'uliyatli va ma'naviy yetukligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, qadriyatlar, pedagogik jarayon, tarbiya, ma'naviyat, shaxs kamoloti, oila va maktab hamkorligi.

Annotation: This thesis analyzes the theoretical and pedagogical foundations of shaping national and universal values among adolescents. During adolescence a person's moral and spiritual views are formed: therefore in the educational process, it is essential to develop students' social activity, responsibility and moral maturity.

Keywords: adolescence values, education, pedagogical process, personality development, spiritually, family – school cooperation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико – педагогические основы формирования национальных и общечеловеческих ценностей у подростков. Период подросткового возраста является важным этапом становления личности, когда формируются нравственные и духовные взгляды. Поэтому в образовательном процессе важно развивать социальную активность, ответственность и духовную зрелость учащихся.

Ключевые слова: подростковый возраст, ценности, воспитание, педагогический процесс, развитие личности, духовность, сотрудничество семьи и школы.

O'smirlik davri (11 - 16 yosh) inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bola mustaqil fikrlash, o'z pozitsiyasini shakillantirish va jamiyatdagi o'z ro'lini anglashga intiladi. Aynan shu jarayonda u atrof – muhit

, ota – ona, tengdoshlar va o'qituvchilarning ta'sirida o'z qadriyatlar tizimini shakillantira boshlaydi. Pedagogik nazariyalarda qadriyatlar tarbiyasi o'quvchiarda ijtimoiy, ahloqiy va ma'naviy meyorlarni shakillantirish jarayoni sifatida qaraladi. O'smirlar ongida qadriyatlarni singdirishda quidagi yo'nalishlar muhim o'rin tutadi.

O'quv jarayonidagi qadriyatlarga yo'naltirilgan yondashuv – darslarda faqat bilim

berish emas , balki o'quvchilarni hayot tarzidan kelib chiqqan holatlar asosida to'g'ri va ongli qaror qabul qilish uchun ko'nikmalar hosil qilish . Misol uchun , tarix va adabiyot yoki ona – tii fanlarida milliy qadriyatlar va xalq qahramonlari , axloqiy fazilatlar timsolida tarbiyaviy suhbatlar tashkil etish kabi dasturlarni o'z ichiga olish hamda tarbiyaviy tadbirlar va loyihalar orqali qadriyatlarni shakillantirish , maslan : “ Mehr – shavqat haftaligi “ , “ Vatanim fahrim va g'ururim “ kabi tashabbuslar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik , mehnatsevarlik tuyg'ularini uyg'otish kabi dasturlardan foydalanish ham foydadan holi bo'lmaydi

. Bu kabi yondashuvlarni yanada rivojlantirish uchun , faol o'qitish metodlari va interfaol mashg'ulotlardan ham foydalanish mumkun . Yani : aqliy hujum , bahs – munozarali savil javob o'yinlari , ro'l ijri etish kabi metodlar orqali ham o'quvchilarda mustaqil fikrlash , to'g'ri qarorga yondashish , o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin .

Shuningdek , oila va maktab hamkorligi kabi metodlar , yani shuni nazarda tutish kerakki , o'smirlar ko'p jihatdan ota – ona munosabati va oilaviy muhitdan ibrat oladilar . Shu bois pedogoglar ota – onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyituvchi tadbirlarni tashkil etidhlari zarur . Shunu ham takidlash joizki bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta'siri ostida yoshlarning qadriyatlari o'zgarib bormoqda . Shu sababli o'smirlarning tanqidiy fikrlashga foydali va zararli axborotlarni ajrata olishga o'rgatish va ulardan to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini singdirish pedogogki jarayoning ajralmas qismidir . O'qituvchilar o'quvchilarning yosh , psihologik va induvidal xsusiyatlarini inobatga olgan holda , tarbiyaviy ishlarni tizimli olib borishlari zarurdir . Faqatgina oila va maktab hamda jamiyatning uzviy hamkorligi orqali o'sib kelayotgan avlodning ongida mustahkam , ma'naviy qadriyatlarni shakillantirish mumkin . O'smirlar ongida qadriyatlarni shakillantirish uzluksiz pedogogik jarayon bo'lib bunda , oila , maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik muhimdir . Pedogoglar o'quvchilarning yosh va psihologik xsusiyatlarini hisobga olgan holda , zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ularning ma'naviy – axloqiy yetukligini taminlay oladilar . O'smirlik davrida shaxs o'z “men” ini izlaydi , hayotiy yo'lini tanlaydi . Shu jarayonda unga ishonch , mehr va e'tibor zarur . O'smirlarga o'z fikrini bildirish imkonini berish , uni tinglash va qo'llab – quvvatlash qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'limning va tarbiyaning asosi hisoblanadi . Pedogogik amaliyotda ishonchli muloqot , hamkorlikda o'rganish va shaxsga hurmat tamoyillari o'smirlarning ichki dunyosi hamda psihologiyasiga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi . Shuningdek milliy qadriyatlarni shakillantirishga xalq o'g'zaki ijodi , milliy bayramlar , urf – odatlar , ajdodlar merosi , chuqur ma'naviy manbalar asosisda o'tkaziladigan darslar va tadbirlar alohida hamiyatga ega .

Chunki o'smirlar anashunday jarayonlarda o'z xalqining madaniy ildizlarini

anglaydilar , milliy g'urur va iftixor tuyg'usini his qiladilar .

Xulosa :

O'smirlar ongida qadriyatlarni shakllantirish jarayoni o'qituvchi , oila va jamiyatning uzluksiz hamkorligini talab etadi . Ta'lim tarbiya tizimida o'smirlarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda , interfaol metodlar , raqamli resurslar va milliy qadriyatlarni uyg'unligini taminlash orqali ularning ma'naviy – axloqiy kamolotiga erishish mumkin . Har bir pedogog o'z faoliyatida nafaqat bilim beruvchi , balki ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi b'lishi zarur .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1 . Hasanboyeva . O . Pedagogik nazariyasi va tarbiya jarayoni . Toshkent : fan va texnologiya (2019)
- 2 . Goziyev . E. G . Umumiy psixologiya . Toshkent : O'qituvchi (2002)
- 3 . Dewey . J . Experience and education . New york : Macmillan (1998)
- 4 . Nurmatova . M . O'smirlar ongida milliy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik mhanizmlari . Zamonaviy ta'lim jurnali № 2 , 88 – 92 (2022)
- 5 . Abdullayeva .D . O'smir yoshdagi o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda oila va maktab hamkorligining roli . Ta'lim va fan № 4 , 55 – 59, (2020)